XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

JOMBOY t., Mustaqillik maydoni, 1-uy, +998 66 475 2330, 140400

2025-yil 30-dekabr VII-21-127-7-94-K/25 Jomboy tumani

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Jomboy tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-5-031-7-94-K/24-sonli qarorining ilova qismiga o‘zgartirish kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabr “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 402-sonli qarorini ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi budjet kodeksining 127-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining yigirma birinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabr “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 402-sonli qaroriga asosan tumandagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini mahalla jamg‘armasiga o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun 1 518 097,0 (bir milliyard besh yuz o‘n sakkiz million to‘qson yetti ming) so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Jomboy tumani bo‘limi tasarrufidagi mahallalarning “Mahalla jamg‘armasi”ga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun Samarqand viloyati iqtisodiyot va moliya bosh

boshqarmasi bilan kelishilgan holda, xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-5-031-7-94-K/24-sonli qarorining 1-ilovasidagi 8-bandi hamda 2-ilovasidagi 9-bandlari tuman mahalliy budjeti hisobidan Jomboy tumani mahalliy budjetining 2025-yil 4-chorak daromadlari va xarajatlarini 1 518 097,0 (bir milliyard besh yuz o‘n sakkiz million to‘qson yetti ming) so‘m ilovaga muvofiq oshirilsin.

3. Jomboy tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (D.Samatov) Jomboy tumani mahalliy budjetining 2025-yil 4-chorak daromadlari va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Toshpulatov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengash raisi

NAZAROV XURSHID ARIPOVICH

Xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-127-7-94-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-5-031-7-94-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Soliq turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20 865 000,0	1 518 097,0	22 383 097,0

Xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-5-031-7-94-K/24-son qarori 2-ilovasidagi 9-bandi “Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Xarajat turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga ritiladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	2 170 000,0	1 518 097,0	3 688 097,0